

## NIRMAL VARMA IJODIDA "BEGONALASHUV" KONSEPSIYASI BOSQICHLARI

**Tilovmurodova Shamsiqamar**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*  
*Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti*  
*Ilmiy rahbar: prof., f.f.d., dots. Xodjayeva T.A*  
*tilovmurodovashamsiqamar@gmail.com*

Jahon adabiyoti bilan yaqindan tanishligi, aql bovar qilmaydigan falsafa bilan birgalikda, Yevropada olgan tajribasi barcha adabiy yo'nalishlarning chegarasini yorib o'tib o'ziga xos oqimga asos solishining asosiy sabablaridan deb hisoblash mumkin. Ijodini roman, esse, hikoya kabi nasriy janrlar boyitgan bo'lishiga qaramasdan, asosiy merosi uning takrorlanmas hikoyalari hisoblanadi. Hikoyanavislikdan boshlangan ijodining boshidayoq modernistik go'yalar asosida qurilgan "begonalashuv" mavzusi, keyinchalik yozuvchining markaziy mavzusiga aylanadi. Begonalashuv atamasi lotin tilidan (*alienatio* - o'tkazish, taslim bo'lish, ajratish, ajralish) ma'nolarini bildirib, umuman olganda, begonalashuv, yolg'izlik va ajralish hissini anglatadi. Britannika entsiklopediyasi begonalashishni "o'z muhitidan, ishidan, ish mahsulotidan yoki o'z-o'zidan begonalashgan yoki ajralgan his qilish holati" deb ta'riflaydi.

Begonalashish yozuvchilar tomonidan shaxsning unga qarshi yoki begona sharoitlarda (davlat tuzumi, atrof-muhit, turmush tarzi, an'analar va boshqalar) rivojlanishi natijasida sodir bo'ladi. Asarlarda begonalashish shaxsning jamiyatdan, tabiatdan, narsalar olamidani, mehnatidan, o'zidan va hokazolardan uzoqlashishi shaklida bo'lishi mumkin. Qahramonning begonalashuv holatidagi xatti-harakati ba'zan ruhiy kasalliklarga yaqin bo'lgan holat bilan belgilanadi. Begonalashuv mavzusini modernizm va postmodernizm adabiyotida uchratish mumkin. Begonalashuv mavzusi dastlab faylasuf, yozuvchilaridan J.P. Sartr, E.Heminguey, A.Kamyu, V.Nabokov kabi ateistik ekzistensializm vakillarining ijodida batafsil muhokama ostiga olingan. G'arb adabiyotshunosi Nansi Grey Diaz o'z tadqiqotlari asosida, begonalashuvning bir necha bosqichlarini ko'rsatib o'tadi:

1. Makondan begonalashuv (mamlakat, davlat, tabiat),
2. O'z davridan begonalashuv,
3. Jamiyatdan begonalashuv (bu begonalashuv aksariyat asarlarda tahlil qilinadi),

4. Ma'lum bir jomoadan begonalashuv (oila, guruhlar kabilar bo'lishi mumkin),

5. O'zlikdan begonalashuv (ruhiy kasallik bilan aloqada tahlil qilnadi),

6. Insonsizlikdan chiqib ketish (asosan eksiztensialistlar foydalanishadi, o'lim bilan tugashi mumkin).

Nirmal Varma hikoyalarining tadqiq qilish davomida ushbu mavzu - markaziy mavzu etib belgilandi. Adib begonalashuvga o'z falsafiy qarashlari orqali shunday ta'rif beradi: "Insonning bu da'vosiz begonalashuvi va to'liq emasligi - zamonaviy, G'arb tomonidan o'ylab topilgan ijod emas u insoniyat orasida bir qurt kabi mavjud bo'lib, uning er yuzidagi "borliq" tuyg'usiga asoslangan. Uning butun afsonaviy tuzilmasi, diniy qonun-qoidasi, yaratgan tasavvuri va bizning zamonamizdagi mutlaq inqilob orzusi ana shu la'nati yetimlikdan qutulish uchun ulug'vor, fojiali va qattiq urinishdir." Shu sababdan ham, Nirmal Varmaning ijodiy merosi ahamiyatliligi shundagi - insonning ichki duniyosini butun koinotdagi eng ozod joy deb hisoblashida edi. Varma hikoyalari janrining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha bahslar, mulohazalar yarim asrdan ko'proq vaqtdan beri davom etmoqda.

G'arb adabiyoti bilan jonli tanishuv, bolalikdan buvasi ta'siri ostida muntazam o'rganilgan milliy adabiyot hamda universitet paytlaridan ta'lim olgan falsafiy qarashlar ijodida asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Biroq, yodda tutish kerak bo'lgan narsa shundaki, asarlaridagi muhojirlik hissi vatandan uzoq bo'lish hissi bilan teng hisoblanmaydi. U asarlarida aynan bu uslub bilan "Begonalashuv" mavzusini hindiy adabiyotida batafsil tadqiq ostiga oladi. Bu mavzu asosi vatandan yiroqlashuv qahramonlar uchun ruhiy ozodlikka erishish mumkinligini anglatgan holda, dunyodagi eng ozod joy insonning ichki duniyosi sifatida qabul qilinadi. Adib hikoyanavislikning uslubiyatida sezilarli darajada yangi shakllardan foydalanganligi bilan boshqa ijodkorlardan ajralib turadi.

Adib hikoyanavisligining tahlil natijasida hikoyalarining barchasida begonalashuv mavzu yoritilgan deb hisoblash maqul ko'rildi. Begonalashuv konsepsiyasining olti bosqichidan (makon, o'z davr, jamoa, jamiyat, o'zlikdan, insonsizlikdan begonalashuv) biz uning "Bir kunlik mehmon hamda "Zulmatda" hikoyalarida oiladan, jamiyatdan hamda insonsizlikdan begonalashuv masalasi yaqqol ifoda etilgan.

Nirmal Varmaning yangi uslubdagi hikoyalari intellektual jihatdan shakllangan, fikrlay oladigan, yozuvchi poetikasi shaxsiy ramzlar, sujetlar qorishmasidagi yashiringan ma'nolarni, hikoya oldiga qo'yilgan g'oya-maqсадni tushuna oladigan kitobxon uchun mo'ljallangan.

Nafaqat Hindiston balki jahon adabiyotida ham o'z o'rniga ega Nirmal Varmaning norealistik hikoyalari kitobxonda hayot mohiyati, undagi mag'lubiyati yoki yutug'iga qaramasdan, insoniy qadiyatlarni saqlab qolish zarurligini targ'ib qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nurmuhamedov M.K. Adabiyot nazariyasi.1-tom. - T.: Fan, 1978.-272b.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. - T.: O'qituvch, 1980.-392b.
3. Xodjayeva T.A. Hindiston xalqlari adabiyoti - T.: ToshDSHI, 2010.-204b.
4. Xodjayeva T.A., Muxibova U.U. Hindiston adabiyoti. - T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020.-552b.
5. Ulug'bek H. Jahon adabiyoti: modernism va postmodernism. -T.: Akademnashr, 2020.-288b.
6. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. -T.: O'zbekiston, 1997. - 415b.
7. Цветкова С.О. Очерки истории литератур Индии: X-XX вв.-СПб.: Санкт-Петербургский Государственный Университет, 2014. -320с.
8. Серебряков И.Д. Литературы народов Индии. -М.: Высшая школа, 1969. -303с.
9. Чаухан Ш. Очерк истории литературы хинди. -М.: Издательство иностранной литературы, 1960. -321с.
10. Чельшев Е. П. Избранные труды. В 3 т. Т. 1. Исследования новой и современной индийской литературы. -М.: Наука, 2001. -788с.
11. Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. O'zbek tilining izohli lug'ati. -T.: O'zbekiston nashriyoti, 2021. -672b.
12. Бескровный В.М. Хинди-русский словарь. -М.: Наука, 1959. - 907с.
13. हरदेव ब. राजपाल हिंदी शब्दकोश. - द.: राजपाल एन्ड सन्ज़, 2019. -980 प.
14. द्विवेदी ह.प.हिन्दी साहित्य की भूमिका. -द.: राजकमल प्रकाशन, 2017.-245